



**Xalqaro muloqotda tarjimonning vositachilik roli:
O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan Xitoy kompaniyalari misolida**

Nigere Xamiti

Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti
universiteti Qiyosiy tilshunoslik,
lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili)
yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Tel : +998 77 781 06 68

E-mail: lucky.nyle8@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjimonning xalqaro muloqot jarayonidagi vositachilik roli, ayniqsa, O‘zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan Xitoy kompaniyalari misolida tahlil qilinadi. Til to‘sig‘i, madaniyatlararo tafovut va rasmiy yozishmalar kabi masalalarda tarjimonning funksiyasi va ahamiyati yoritiladi. Amaliy misollar asosida tarjimonlar ko‘prik vazifasini bajarishi, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: tarjimon, xalqaro muloqot, vositachilik, Xitoy kompaniyalari, til to‘sig‘i, madaniyatlararo muloqot.

Bugungi rivojlanayotgan va o‘zaro integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan zamonda mamlakatlar iqtisodiyot, xizmat ko‘rsatish, logistika, ishlab chiqarish, marketing va menejment sohalarida ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirib borayotgan bir davrda har ikki tomonning davlat tilini yaxshi biladigan va erkin tarjima qila oladigan mutaxassislariga talab ham ortib bormoqda. Globalizatsiya jarayonlari natijasida turli millat va davlatlar o‘rtasidagi aloqalar tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston tashqi



iqtisodiy siyosatining so‘nggi o‘n yil ichida ochiqligi, xorijiy sarmoyadorlarga qulay shart-sharoitlar yaratib berayotgani sababli, mamlakat hududida faoliyat yuritayotgan xorijiy, jumladan, Xitoy kompaniyalari soni keskin ortmoqda.¹ Bunday sharoitda o‘zaro tushunish, muzokaralar, huquqiy va iqtisodiy bitimlar natijadorligini ta‘minlashda tarjimonlar hal qiluvchi vositachi sifatida ishtirok etmoqda.²

Tarjimon faqatgina til vositachisi emas, madaniyatlararo ko‘prik vazifasini ham bajarishi mumkin. Tarjimon faqat lug‘aviy tarjima bilan cheklanmaydi.³ U madaniyatlar, ish yuritish an‘analari, nutq uslublari va hatto tana tilini (jestikulyatsiya) ham to‘g‘ri talqin qilib, tomonlar o‘rtasida muloqotni yengillashtiradi.⁴ Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlikda bu holat ayniqsa dolzarb, chunki bu ikki davlatning tili ham, madaniyati ham keskin farqlanadi.

So‘nggi yillarda Xitoy O‘zbekistonning eng yirik iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi. Energetika, qurilish, transport, sanoat kabi sohalarda Xitoy kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. 2023-yil yakuni bo‘yicha ikki davlat o‘rtasidagi umumiy tashqi savdo aylanmasi 13,7 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Bu o‘shish oldingi yillarga nisbatan 51,5 % ni tashkil etdi (eksport hajmi 2,5 mlrd, import hajmi 11.3 mlrd dollar).⁵ 2023-yilda Xitoy O‘zbekistonning eng yirik tashqi savdo hamkoriga aylanib, uning umumiy savdodagi ulushi 21,9 % ni, importdagi ulushi esa 29,5 % ni tashkil etdi. 2024-yilning birinchi yarmida eksport-import trafigida barqaror o‘shish kuzatildi, savdo aylanmasi miqdori 5,9 mlrd AQSh dollariga yetdi.

O‘zbekiston-Xitoyning kengaytirilgan hamkorlik dasturlari ham tuzilgan bo‘lib ularga quyidagilar kiradi:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2024). Xitoy bilan tashqi savdo aylanmasi statistikasi.

² O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2023). O‘zbekiston-Xitoy savdo-iqtisodiy munosabatlari hisobotlari.

³ Hatim, B., Mason, I. (1997). The Translator as Communicator. Routledge.

⁴ Valero Garces, C. (2008). Intercultural Communication in Interpreting: Power and Choices. John Benjamins Publishing.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2023). O‘zbekiston-Xitoy savdo-iqtisodiy munosabatlari hisobotlari.



- 2023-2027-yillarga mo'ljallangan strategik sheriklik dasturi rasman imzolandi. Bu texnik-iqtisodiy, ta'lim, transport, agrar va innovatsion sohalarda hamkorlikni qamrab oladi;
- 500+ ta hujjat (bitim/protokol/memorandum) imzolandi: texnik-iqtisodiy hamkorlik, avtomobilsozlik, ekzponent an'analar, sanitariya nazorati, transport sohasida (masalan, "Air Silk Road" va "China–Central Asia–Europe" temir yo'llari).
- 2025-yilga kelib, "Yashil iqtisodiyot yili" doirasida Xitoy bilan ekologiya hamkorligi va toza texnologiyalarni joriy etish ustida ishlar davom etmoqda.

Bugungi kunda yurtimizdagi Xitoy va O'zbekiston qo'shma korxonalarining soni 2300 dan oshgan. 2025-yil may oyida Xitoyning Futszyan provinsiyasidan kelgan delegatsiya bilan 20 dan ortiq investitsiya loyihasi memorandumlari, shu jumladan, qurilish, tog'-kon sanoati, avtomobil ishlab chiqarishga doir hujjatlar imzolandi.

Xitoy–Markaziy Osiyo–Yevropa temir yo'li yo'nalishlari ustida strategik hamkorlik takomillashmoqda. "Air Silk Road" (Havo Ipak yo'li) loyihasi doirasida aviatsiya sohasidagi hamkorlik faollashmoqda. 2024–2025-yillarda transport-logistika yo'nalishlari Samarqanddagi forumlarda muhokama qilinib, kelgusidagi istiqbollar belgilandi.⁶

2023–2024 yillarda Xitoy tili, muhandislik ta'limi yo'nalishida qo'shma dasturlarni rivojlantirish dasturi qabul qilindi. SIUT (Samarqand Xalqaro Texnologiya Universiteti)da Xitoy bilan muhandislik va energetika sohasida bir qator hamkorlik loyihalari yo'lga qo'yildi. O'qituvchi va talaba almashinuvi, grant dasturlari faol davom etmoqda. 2024-yilda raqamli iqtisodiyot va ekologiya sohasi Xitoy bilan hamkorlikda masofaviy ko'lamda rivojlantirish ko'zda tutilgan. Fan va ijtimoiy taraqqiyotga oid tadbirlar, iqtidorli loyiha va ilmiy-texnik hamkorlik shartnomalari imzolandi. Sustainable Development Goals (SDG) doirasida hamkorlik maqolasi Xitoy-O'zbekiston modelini tahlil qiladi, bu ekologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy hissa qo'shadi .

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2024). Xitoy bilan tashqi savdo aylanmasi statistikasi.



Xitoylik kompaniyalarning loyihalari doirasida o‘zbek mutaxassislari, mahalliy ishchilar va rasmiy idoralar bilan doimiy aloqa zarurati yuzaga kelmoqda. Ko‘plab Xitoy kompaniyalari o‘z mutaxassislarini olib keladi, lekin ularning aksariyati na o‘zbek tilini, na rus tilini biladi.⁷ Shu o‘rinda O‘zbekiston oliygohlaridan yetishib chiqqan mahalliy tarjimonlar:

- muzokaralarda ishtirok etadi;
- huquqiy hujjatlarni tarjima qiladi;
- madaniyatlararo tushunmovchiliklarni yumshatadi;
- texnik matnlarni lokalizatsiya qiladi.

Masalan, “China Railway Tunnel Group” yoki “Sinohydro” kabi yirik kompaniyalarning loyiha ofislarida doimiy tarjimonlar shtatda faoliyat yuritadi. Ular nafaqat og‘zaki tarjima, balki tashkiliy va diplomatik aloqalarda ham ishtirok etadi.⁸

Yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda, tarjimon:

- kamida uch tilni mukammal bilishi (xitoycha, o‘zbekcha, ruscha yoki inglizcha);
- soha terminologiyasini mukammal bilishi;
- madaniy tafovutlarni anglay olishi;
- stressga chidamli va kommunikativ bo‘lishi;
- fors-major holatlarga ham tayyor bo‘lmog‘i zarur.⁹

Bugungi kunda ko‘plab universitetlarda tarjimonlik fakultetlari mavjud bo‘lsa-da, xalqaro biznes va diplomatiya yo‘nalishida mutaxassis tarjimonlarga ehtiyoj yuqoriligicha qolayotir.

Xulosa qilib aytganda, tarjimonlar xalqaro muloqotda nafaqat til vositachisi, balki madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalarni samarali olib borishda hal qiluvchi o‘rin egallaydi.

⁷ Komilov, M. (2022). “Xitoy kompaniyalarining O‘zbekistondagi loyihalari va ularning til vositachiligi”. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, №2, 45–51-bet.

⁸ Embassy of the PRC in Uzbekistan. (2023). China–Uzbekistan cooperation overview.

⁹ Munday, J. (2016). Introducing Translation Studies: Theories and Applications. Routledge.



Xitoy kompaniyalarining O‘zbekistondagi faoliyati bunga yorqin misoldir. Kelgusida tarjimonlik sohasini chuqurlashtirish, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytirish zarurati ortib bormoqda. Bu esa ikki tomonlama hamkorlikning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2023). O‘zbekiston-Xitoy savdo-iqtisodiy munosabatlari hisobotlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2024). Xitoy bilan tashqi savdo aylanmasi statistikasi.
3. Komilov, M. (2022). “Xitoy kompaniyalarining O‘zbekistondagi loyihalari va ularning til vositachiligi”. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, №2, 45–51-bet.
4. Hatim, B., Mason, I. (1997). The Translator as Communicator. Routledge.
5. Embassy of the PRC in Uzbekistan. (2023). China–Uzbekistan cooperation overview.
6. Munday, J. (2016). Introducing Translation Studies: Theories and Applications. Routledge.
7. Valero Garces, C. (2008). Intercultural Communication in Interpreting: Power and Choices. John Benjamins Publishing.